



Din va manaviy kamolot

Samatov Xurshid

Ilmiy rahbar

Olimjonov Adhambek

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent

Axborot Texnologiyalari Universitet Samarqand

Filiali Dasturiy injineriingi yo'nalishi

DI24-08 guruh 1- bosqich talabasi

Elektron pochta: adhambek7717@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada dinning inson ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Dinning inson hayotidagi yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, axloqiy mezonlarni belgilovchi kuch sifatida ta'siri yoritiladi. Shuningdek, din va ma'naviy kamolot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, insonning ruhiy-axloqiy yetuklik sari intilishi, diniy qadriyatlarning jamiyatdagi barqarorlik va birlikni mustahkamlashdagi o'rni ilmiy-nazariy hamda amaliy misollar asosida ko'rib chiqiladi. Maqolada O'zbekistonning ma'naviy siyosatidagi diniy bag'rikenglik tamoyillari ham alohida e'tibor bilan yoritilgan. Ushbu mavzu, ayniqsa, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda diniy-ma'naviy omillarning qanday rol o'ynashini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Inson, ma'naviyat, kamolot, taraqqiyot, jamiyat, ma'rifat, din, anglash, insonparvarlik.



Abstract: This paper explores the role and significance of religion in the formation of human spirituality and moral development. It examines how religion serves as a guiding force in individual lives, shaping ethical standards and influencing personal behavior. The interconnection between religion and spiritual perfection is analyzed, emphasizing the path toward inner maturity and moral integrity. The work also highlights how religious values contribute to social stability, unity, and harmony within society. Special attention is given to the principles of religious tolerance and interfaith harmony promoted in Uzbekistan's spiritual policy. This topic is particularly relevant in understanding how religious and spiritual factors play a crucial role in the upbringing of a well-rounded younger generation.

Аннотация: В данной работе рассматривается роль и значение религии в формировании духовности и нравственного совершенствования личности. Анализируется, как религия служит нравственным ориентиром, формирует этические нормы и оказывает влияние на поведение человека. Особое внимание уделяется взаимосвязи между религией и духовным развитием, пути к внутреннему совершенству и моральной зрелости. Также подчеркивается вклад религиозных ценностей в укрепление стабильности, единства и гармонии в обществе. Отдельно рассматриваются принципы религиозной терпимости и межконфессионального согласия, проводимые в духовной политике Узбекистана. Тема актуальна в контексте воспитания всесторонне развитой молодежи и формирования здорового мировоззрения на основе духовно-нравственных ценностей.

Insoniyat tarixida din har doim insonning ichki dunyosini boyituvchi, uni ma'naviy va axloqiy jihatdan kamolot sari yetaklovchi muhim omil bo'lib kelgan. Dinning asosiy vazifasi – insonni ezgulikka chorlash, uni yomonliklardan qaytarish, hayotda to'g'ri yo'lni tanlashga undashdir. Har bir dinning tagzamirida yotgan oliy g'oya – bu insonni ruhiy poklikka, axloqiy yetuklikka erishishga ilhomlantirishdir. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida inson ma'naviyati, uning axloqiy mezonlari va ichki dunyo boyligi jamiyat



taraqqiyotining eng asosiy omili sifatida qaralmoqda. Ma'naviy kamolot deganda insonning ruhiy-axloqiy yuksalishi, o'zini anglash, ijtimoiy hayotdagi o'rnini topish va doimiy ravishda o'z ustida ishlashi tushuniladi. Bu yo'lda esa din eng asosiy tayanch va yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi manba bo'lib xizmat qiladi. Chunki din inson qalbiga mehr, halollik, sabr, kechirimlilik, vijdon kabi tuyg'ularni singdiradi. Ushbu qadriyatlar esa ma'naviy barkamollikning poydevori hisoblanadi.

O'zbekiston tajribasiga nazar tashlasak, mustaqillik yillarida din va ma'naviyat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, e'tiqod erkinligi kabi tamoyillar davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk allomalarimizning ilmiy merosini chuqur o'rganish va targ'ib qilish orqali yosh avlodda sog'lom ma'naviyatni shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Qur'oni karim va hadislar asosida axloqiy tarbiya berish, diniy-ma'rifiy markazlar faoliyatini kengaytirish, ta'lim tizimida ma'naviyatga oid darslar joriy etish kabi tashabbuslar buning amaliy dalilidir.

Shuningdek, jamiyatda barqarorlikni saqlash, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashda ham diniy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Zero, din insonni avvalo o'zini tarbiyalashga, keyin esa oilasini, atrofdagilarni hurmat qilishga, jamiyatga foydali shaxs bo'lishga undaydi.

Islomiy qadriyatlar asrlar davomida musulmonlar ongi va qalbiga chuqur singib, ularning turmush-tarzi, hayot yo'lini belgilashda milliy qadriyatlar bilan uyg'unlikda asosiy mafkura vazifasini o'tagan. O'zbek xalqi ma'naviy madaniyatini shakllantirish jarayonida islom qadriyatlarining va yurtimizdan yetishib chiqqan islom allomalarining tutgan o'rni va roli benihoya kattadir. Shu qutlug' zaminimizda tug'ilib voyaga yetgan, muborak nomlarini butun islom dunyosi cheksiz ehtirom bilan tilga oladigan Imom Moturidiy, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Baxouddin Nakshband, Axmad Yassaviy, Abduholik G'ijduvoni, Zamaxshariy kabi piri komillarimizni nazarda tutamiz. Ma'naviy xayotimizni mana shu ulug' nomlar bilan bog'laymiz. Chunki bu buyuk insonlarning



buyuk nomlari, o'chmas merosi muqaddas dinimiz bilan chambarchas bog'lanib ketgan, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Biz milliy g'oyamiz tarixini bu ulug' nomlarsiz, bu ulug' nomlarni esa dinimizsiz tasavvur eta olmaymiz.

Bu ulug' ajdodlarimizning muqaddas merosidan xalqimizni, jumladan yoshlarimizni ham bahramand qilishga, ularni mana shunday ma'naviy madaniyat muhitida kamol toptirishga, islomning insonparvarlik falsafasidagi shu buyuk g'oyalarni yoshlar qalbidan joy oldirishga sharoit yaratishimiz lozim. Biz farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Moturidiyning kalom ilmi, Imom Buxoriy to'plagan hadislar, Naqshbandiy ta'limoti, Termiziy o'gitlari, Yassaviy xikmatlari asosida tarbiya qilishimiz kerak. Milliy g'oya tarixini o'rganishda, milliy g'oyani targ'ib qilishda allomalarimiz merosidan foydalanishimiz zarur.

Bu atoqli ulamolar orqali islomning xalqimiz ma'naviy madaniyati kamolotidagi rolga berilayotgan yuksak bahoning isboti sifatida, dinga oid minglab kitoblar nashr etilgani, masjidu madrasalar obod qilingani, ularning qabrlari xaqiqiy ziyoratgohlarga aylantirilganini eslash kifoya. O'zbek xalqining ma'naviy kamoloti rivojida ayniqsa, islom qadriyatlarining hamda din arboblarning tutgan o'rni va rolga obyektiv baho berilmoqda. Islom dini - bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifatdir. U quruq aqidilar yig'indisi emas. Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon deb qabul qiladilar va yaxshi o'gitlariga amal qiladilar va mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo'lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga xarakat qiladilar. Bu esa milliy g'oyamizning mohiyat-mazmunini tashkil qiladi.

Tariximizning qaysi davrini eslamaylik, din har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, yaxshi xislatlarini ko'paytirib, yomonlikdan halos bo'lishga chaqirgan. Har bir alohida insonga, oila, jamoa, mintaqa, umumxalqqa rahnamo bo'lgan. Uni og'ir-og'ir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan. Bunday da'vat o'z navbatida odamlarga kuch-quvvat bag'ishlagan, irodasini mustahkam qilgan, bir-biriga mehru oqibatini oshirgan. Demak, din xalq ma'naviyatining, ma'rifatining yuksalishiga katta hissa qo'shib kelgan ekan bugungi davlatchiligimiz haqida so'z



yuritganda, rejalar tuzganda dinni, eng avvalo ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatida e'tiborda tutishimiz kerak. O'zbek xalqi ma'naviy madaniyati rivoji tarixida islom dini ham diniy, ham umumbashariy qadriyat sifatida diniy va dunyoviy ilmlarning mushtarakligini targ'ib qilgan. Biroq ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning murakkabligi, turli xil diniy va siyosiy oqimlarning mavjudligi, turli mamlakatda madaniyatda erishilgan yutuqlarni o'zlashtirish, tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojlanishi xalifalikning ma'naviy, madaniy hayotida kelib chiqadigan diniy va dunyoviy oqimlarning xilma-xil bo'lishiga va ziddiyatliligiga olib kelgan.

Ma'lumki, VIII asrdayoq musulmon aqidaviy ta'limoti - Kalom yuzaga kelgan. Ushbu ta'limotni rivojlantirishda Imom Moturidiyning xizmatlari beqiyosdir. Kalomning tarafdorlari - mutakallimlar haqida fikr yuritib, islomning eng yirik mafkurachisi bo'lib, ular haqida fikr bildirganlardan biri Abu Xamid al-G'azzoliydir. U bunday deb yozgan edi: "Ularning maqsadi Sunnatga e'tiqod qiladigan kishilarning iymon tamoyilini saqlab qolishdan, uni o'zlari o'ylab topgan yangiliklar bilan birga bid'atchilar kiritayotgan chalkashliklardan muhofaza qilishdan iborat edi". Bu davrda Markaziy Osiyoda islom keng tarqalgan mamlakatlardan bo'lib, u hukmron mafkura vazifasini bajarayotgan edi. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining aksariyati arab tilida ijod qilganlariga qaramay, o'z xalqining vakillari sifatida uning tarixi, ma'naviy -madaniyati, urf-odatlarini hurmat qilganlar, hamda uni rivojlantirishga va yanada boyitishga xarakat qilganlar.

Hadislarda aytilishicha, Allohni tanish uchun ham kishi aqlli, bilimli, ma'rifatli bo'lishi shart. Uning komil inson, fozil mo'min bo'lishi uchun dunyoviy bilim, xuddi shunday axloq kanchalik zarur bo'lsa, uning ma'naviy madaniyat jihatidan boy, ahloqiy tomondan xalol, pok, barkamol bo'lishi diniy ta'limot va axloq uchun xam shunchalik zarurdir. Ilm va ilm ahliga bo'lgan iliq va samimiy munosabat Sharq, xususan, O'rta Osiyo musulmonlari hayotida juda katta insoniy fazilat va ne'mat sanalgan. Bu holning hadislarda zikr etilganligi esa nafaqat ilm va olimlarning, balki ularga qaratiladigan munosabatlarning axloqiy ahamiyatini ancha kuchaytirgan.



“Islom dini taraqqiyotga, inson kamolotiga xizmat qiladigan eng muhim ma'naviy omildir.”¹

Bu haqiqatni faqat bugungi tariximizgina emas, balki o'tmishimiz ham to'la tasdiqlaydi. O'rta asrlarda din madaniyatning barcha turlarini - ilm-fan, falsafa, huquq, axloq, san'at va boshqa sohalarni o'zida mujassamlashtirgan va ularga o'zining g'oyaviy ta'sirini o'tkazib kelgan. Zero, islom dini talimotining asoslari Qur'onda, hadislarda hamda ilohiyot adabiyotida o'z ifodasini topgan. Din o'zining tantanali bayramlari, turli marosimlari bilan kishilar ko'nglida ko'tarinki kayfiyat, xurramlik, rahm-shavqat, sabr-toqat, qanoat, mexr-oqibat, hamdardlik, poklik, odamgarchilik va shu kabi boshqa fazilatlarni shakllantiradi. Va kamol toptiradi. Butun jahon diqqat-e'tiborini tortgan boy va rang-barang madaniy-ma'naviy merosimiz ikki qudratli to'lqin - dunyoviy ilmlar va diniy falsafiy tafakkurga tayanadi. Shu bois ham bu o'lmas nodir ma'naviy qadriyatlar bugungi yangi demokratik fuqarolik jamiyati qurilishida muhim ma'naviy-g'oyaviy ahamiyat kasb etayapti.

Islom olamida eng yetuk va mashhur olimlardan hisoblangan al-Buxoriy, Imom Ibn Muborak al-Marvaziy, ash-Shoshiy, Jamoliddin an-Nasafiy, Imom at-Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Burxoniddin Marg'inoniy, Baxouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Abu Mansur Moturudiy singari buyuk zotlar shular jumlasidandir. Bizning yurtimiz - Turon zaminida va musulmon Sharqida tasavvufning bir necha tariqati ta'limotlari yuzaga kelgan va yoyilgan. Bulardan eng ko'p tarqalganlari yassaviya, kubroviya, naqshbandiya va boshqa tariqatlardir. Ushbu tariqatlarda bildirilgan fikrlar milliy g'oyamizning tarixiy ildizlarini o'rganishda ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Milliy g'oya tarixini o'rganishda ma'naviy merosimizga ulkan hissa qo'shgan allomalarimizning merosini yoshlar o'rtasida targ'ib qilish muhimdir. Ularning ma'naviyatni shakllantirishda insonni ma'naviy yetuklikka chorlovchi diniy, axloqiy va

¹ Hojiboyev D. Dinshunoslik asoslari. – T.: Iqtisodiyot, 2007. – B. 112.



falsafiy-xuquqiy hikmatlaridan foydalanishimiz lozim. Zero, e'tiqod tarbiyasi Vattani sevishda imonning mazmunini belgilovchi asosdir. “Biz farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamon bilan hamnafas bo‘lib yashaydigan barkamol insonlar etib tarbiyalashimiz kerak.”² Vatanparvarlik milliy g'oyaning asosiy xususiyatini belgilovchi mezondir. Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo'lishga undaydi. Muqaddas islom dinimiz bizga aynan shuni o'rgatadi. “Islom dini taraqqiyotga, inson kamolotiga xizmat qiladigan eng muhim ma'naviy omildir.”³ O'zbekiston o'zining ichki va tashqi siyosatida islom dini qobig'ida ifoda etilgan umuminsoniy qadriyatlarga katta e'tibor berib, ularga muhim o'rin ajratmoqda. Buning boyisi shundaki, islom dini, uning qadriyatlari xalqimizning moddiy va ma'naviy hayotining shakllanishida, yurtimizning jahon madaniyatining yirik maskaniga aylanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mana shu jihatlar milliy g'oya tarixini o'rganishning muhim vazifalarini belgilaydi. Mamlakatimizda "jaholatga qarshi-ma'rifat" degan ezgu g'oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do'stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ'ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo'lib qoladi. “Agar biz yosh avlod qalbida milliy g'urur va or-nomus tuyg'ularini kuchaytira olmasak, ularni yot va begona g'oyalardan asray olmasak, ertaga kech bo'lishi mumkin.”⁴ Ma'naviy barkamollik faqat tashqi intizom yoki bilim bilan emas, balki ichki dunyo boyligi va axloqiy tozalik bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun, din inson qalbini poklab, uni mehnatsevarlik, halollik va vijdonlilik ruhida tarbiyalaydi.

² Karimov I. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. – B. 28.

³ Hojiboyev D. Dinshunoslik asoslari. – T.: Iqtisodiyot, 2007. – B. 112.

⁴ 1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 13.



Xulosa qilib aytganda, din va ma'naviy kamolot bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Insonning barkamol shaxs bo'lib shakllanishida, uning iymon, e'tiqod, axloqiy qarashlarida dinning tutgan o'rni beqiyosdir. Ma'naviy yetuk jamiyat barpo etish uchun, avvalo, har bir insonning ma'naviy dunyosini boyitish, uni sog'lom e'tiqod, halol mehnat, insoniylik ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Shu bois, dinni to'g'ri anglash, uni ma'naviy yuksalish yo'lida foydali vosita sifatida qo'llash har bir ongli fuqaroning burchi bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 13.
2. Karimov I. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. – B. 28.
3. Jo'raev E. va boshq. Dinshunoslik. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2003. – B. 65.
4. Hojiboyev D. Dinshunoslik asoslari. – T.: Iqtisodiyot, 2007. – B. 112.
5. Abduqodirov A. va boshq. Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: Ma'naviyat, 2005. – B. 39.